EKSPERTLIK-TAHLIL MARKAZLARINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL JIHATLARI

Jasur Turg'unboyev
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ekpertlik-tahliliy markazining muqoboli bo'lgan "aql markazi" tushunchasi, xalqaro tashkilotlar va tadqiqotchi olimlar tomonidan unga berilgan ta'riflar keltirilgan. Shuningdek, bugungi kunda tahlil markazlarining tasnifi, xususan turlari va faoliyat yo'nalishlari borasida ma'lumotlar yoritilgan. Bundan tashqari, "aql markaz"larining shakllanishi borasida muhim bosqichlar va davrning o'ziga xos jihatlari borasida maqolada ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: eskpertlik-tahlil markazi, aql markazi, tahlil markazi, tadqiqot, tahlil, AQSH, olimlar, siyosat, ilmiy izlanish, jamiyat.

ТЕОРЕТИКО-КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ЭКСПЕРТНО-АНАЛИТИЧЕСКИХ ЦЕНТРОВ

Жасур Тургунбаев
Самостоятельный соискатель Университета мировой экономики и дипломатии

Аннотация: В данной статье представлено понятие «мозговой центр», который является синоним экспертно-аналитическому центру, определения, данные ему международными организациями и учеными-исследователями. Также была освещена информация о классификации аналитических центров, в частности, по видам и направлениям деятельности. Кроме того, в статье представлена информация о важных этапах формирования «мозговых центров» и особенностях этого периода.

Ключевые слова: экспертно-аналитический центр, мозоговой центр, аналитический центр, исследования, анализ, США, ученые, политика, научные исследования, общество.

THEORETICAL AND CONCEPTUAL ASPECTS OF RESEARCH OF EXPERT -ANALYTICAL CENTERS

Jasur Turgunbaev
Independent researcher of the University of World Economy and Diplomacy

Annotation: This article presents the concept of "think tank", which is a synonym for the expert-analytical center, the definitions given to it by international organizations and research scientists. Information on the classification of analytical centers was also covered, in particular, by types and areas of activity. In addition, the article provides information about the important stages in the formation of "think tanks" and the features of this period.

Key words: think tank, think tank, think tank, research, analysis, USA, scientists, politics, research, society.

Kirish. Bugungi kunda ekspertlik-tahlil markazlari zamonaviy siyosiy tizimda qabul qilinadigan qarorlar sifatini ta’minlashning muhim vazifasini bajaradi. Xususan, global iqtisodiy inqirozga qarshi kurashishdan tortib jangovar harakatlar tahliligacha ekspertlik fikrlarini tavsiya qiladi. Ekspertlik-tahlil markazlari ommaviy tahlillar rivojiga imkon beradi, davlatning qarorlar qabul qilish, islohotlarni ishlab chiqish va amalga oshirishida ko‘mak beradi. Jamiyatda ro‘y berayotgan siyosiy jarayonlarning muttasil murakkablashishi esa ekspertlik-tahlil markazlarining rolini yanada oshishiga olib kelmoqda.

Mazkur tadqiqot ishida qo‘llanilgan “ekspertlik-tahlil markazi” ingliz tilidagi “think tank” (aql markazi) atamasining muqobili hisoblanib, siyosatshunoslik adabiyotlarida sinonimlar sifatida rus tilida “резервуары мысли” (g‘oyalar zaxirasi), “фабрики мысли” (go‘yalar fabrikasi) yoki “мозговые тресты” (aql trestlari), “axborot-tahliliy markazi” yoki “tahlil markazi”, “mustaqil tahlil markazi” va g‘arb adabiyotida keng qo‘llaniladigan “aql markazi” (think tank) bir xil ma’nolarni anglatib, umumiy ma’noda tadqiqot va maslahat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi ilmiy tadqiqot muassasidir. Ushbu tadqiqot ishida “ekspertlik-tahlil markazi” bilan bir qatorda sinonimlar sifatida “aql markazi” va “tahlil markazi” atamalari sinonim sifatida qo‘llanilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tahlil markazlari sohasida yetakchi xorijiy tadqiqotchilari J. MakGann, R. Haas, E. Rich va T. Medvets ilmiy ishlaridan foydalanildi. Xususan, ularning ishlarida “aql markazlari” markazlarning partiyaviylik va mafkuraviy mansubligiga qarab tasniflarni ajratadilar. Maqolada ushbu mualliflar tushunchalarining tahlili keltiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida tarixiylik, analiz, sintez, taqqoslash, bir mamlakat ichida tahlil qilish (single-country analysis), tavsiflovchi tarix (descriptive history), tasniflash va “Aql markazlari” roli imkoniyatlarini bashorat qilish va baholash kabi usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi ta’rificha “ekspertlik tahlil markazi” yoki “aql markazi” davlat siyosati bilan bog‘liq har qanday masala bo‘yicha muntazam ravishda tadqiqot va targ‘ibot bilan

shug'ullanadigan tashkilotlar. Ular (aql markazlar) zamonaviy demokratik davlatlarda bilim va hokimiyat o'rtasidagi ko'prikdir". [1]

"Britannica" ensiklopediyasiga ko'ra, "aql markazi" – turli sohalar bo'yicha tadqiqot olib boruvchi va maxsus bilimlardan foydalangan holda tavsiya hamda maslahatlar ishlab chiqishga mo'ljallangan institut, birlashma yoki mutaxassislar guruhidir. [2]

Britaniyaning nufuzli "Politics.co.uk" elektron nashri aql markazlarini "siyosatchilar va hukumat vakillariga ta'sir qilish maqsadida ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy masalalar bo'yicha maslahatlarni nashr etadigan tadqiqot va targ'ibot institutlari" sifatida qayd etadi. [3]

AQSHda joylashgan Xalqaro xususiy tadbirkorlik markazi (*Center for International Private Enterprise*) ta'rificha: "aql markazlari" yangi g'oyalar "inkubatori", bilimlarni olimlar, siyosatchilar va fuqarolik jamiyati institutlariga yetkazadi. Shuningdek, amaliy tadqiqotchi sifatida fanlararo nazariya va empirik dalillarni tavsiyalarga aylantirgan holda qaror qabul qiluvchini xabardor qiladi. [4]

Ekspertlik-tahlil markazi (aql markazi) ta'rifi bo'yicha mutaxassislar tomonidan muhokamalar hali ham davom etmoqda. Ilmiy adabiyotlarda ham mazkur tushunchaga yagona berilgan ta'rif mavjud emas. Turli siyosiy tizimga ega davlatlarda ekspertlik-tahlil markazlari (aql markazi)ning o'rni farq qilishi sababli ham yagona ta'rifni shakllantirishni qiyinlashtiradi.

Tadqiqotchi olim D.Stoun aql markazlari erkin fikrlashi uchun hukumat va turli guruhlardan holi bo'lishi kerak deya ta'kidlaydi. [5] Mutaxassis Yehezkel Dror aql markazlari fanlararo ilmiy baza, turli soha bo'yicha 10-15 tadan kam bo'lmagan mutaxassis, turli tadqiqot metodlariga, intellektual erkinlikka, ma'lum moliyaviy ko'makka (davlat, xususiy va boshqa) va siyosiy jarayonga ta'sir ko'rsata oladigan ilmiy material ishlab chiqarish imkoniyatlariga ega bo'lishi kerakligini bildiradi.

Ekspertlik-tahlil markazlarini vujudga kelishi tarixiga e'tibor qilsak, XIX asrning so'nggi choragi va XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Mazkur davrda hukumatlarning siyosiy va iqtisodiy sohaga keskin aralashuvi bilan birgalikda xususiy tadbirkorlarning ham ichki va tashqi siyosiy qarorlar qabul qilishga aralashuvi ham kuchayadi.

Tadqiqot olim D. Abelson "aql markazlari"ni vujudga kelishini 4 davrga bo'ladi: [6]

Birinchi davr 1900-1945 yillarni o'z ichiga oladi. Mazkur davrda Birinchi Jahon urushi yakunlanishi bilan idealistik qarashlar ta'sirida davlatlar o'rtasida tinchlikka erishish va tinchlikni saqlashga intilish kuchayadi. Natijada, AQSHda ilk "aql markazlari" vujudga keladi. Xususan, 1907-yilda Rassel Seyj Fondi *(The Russel Sage-Foundation*), 1910-yilda Xalqaro tinchlik uchun Karnegi jamg'armasi *(The Carnegie Endowment for International Peace*), 1916-yilda Brukings instituti *(The*

Brookings Institute), Xalqaro munosabatlar Kengashi *(The Council on Foreign Relations)* tashkil topadi.

Ikkinchi davr 1946-1970 yillarni o‘z ichiga oladi. Ushbu davrda yangi avlod "aql markazlari" paydo bo‘ladi. Xususan, homiylar va jamg‘armalar tahlil markazlarini tashkil etishda muhim o‘rin egallay boshladi. Sovuq Urush davom etayotgan bir davrda iqtisodiyot, siyosat, mudofaa va geosiyosiy masalalar bo‘yicha tadqiqotlar zarurati natijasida "aql markaz"larining ahamiyati oshib bordi. Mazkur davrda AQSH hukumati bilan shartnoma asosida moliyalashtiriladigan RAND korporatsiyasi tashkil topdi. Tahlil markazlarining rivojidagi ushbu davrning avvalgi davrga qaraganda farqi shunda ediki, "aql markaz"lari tomonidan ishlab chiqilgan tadqiqotlar mamlakat tashqi siyosatida hal qiluvchi omillardan biri bo‘lib xizmat qila boshladi. [5]

Uchunchi davr 1971-1980 yillarni o‘z ichiga oladi. Mazkur davrning o‘ziga xos xusiyatlaridan biri shunda ediki, endilikda ma'lum qatlam, guruhlar va partiyalarning manfaatlarini himoya qiladigan "aql markaz"lari paydo bo‘la boshladi. Tadqiqotchi olim E. Richaning fikricha, ushbu siyosiy jarayonlar natijasida AQSHda tahlil markazlarining soni oshib bordi. Markur davrda "Heritage" fondi tashkil topadi. AQSHning o‘sha paytdagi prezidenti R. Reygan hukumati fondning davlat iqtisodiyotga aralashuvi bo‘yicha konservativ qarashlarini hisob olgan. [6]

To‘rtinchi davr 1980-yildan keyingi davrni o‘z ichiga olgan bo‘lib, mazkur davrda yuqori davlat lavozimdagi shaxslar, prezidentlar, prezidentlikka nomzodini ko‘rsatilgan shaxslar va vazirlar muhim hisoblagan tadqiqotlar olib borgan "aql markaz"lari tashkil topadi. Bundan tashqari "aql markaz"lari dunyo bo‘ylab keng ommalasha boshladi. Olim D. Makgann bugungi kundagi faoliyat olib borayotgan nufuzli tahlil markazlarining uchdan ikki qismi 1970-yildan keyin tashkil topgan, yarmidan ko‘pi esa 1980-yildan keyin tashkil etilganligi ta'kidlaydi. [7]

Sovuq Urushning tugashi va Sovet Ittifoqining parchalanib ketishi natijasida mustaqil davlatlar tashklil topishi, turli mintaqalarda, xususan, Janubiy Amerika va Osiyo mintaqasida demokratik qadriyatlar kuchayishi, globallashuv va texnologik yutuqlar natijasida "aql markaz"larining soni oshib bordi. Bundan tashqari, moliyaviy resurslar bilan ta'minlaydigan tashkilot va homiylarning paydo bo‘lishi ham tahlil markazlarining ko‘payishiga sabab bo‘ldi. Xususan, AQSH Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) turli sohalarda tadqiqot olib borish uchun tahlil markazlarini moliyalashtirishga alohida e'tibor qarata boshladi. [5]

Ushbu davrning yana bir o‘ziga xos tomonlaridan biri shundaki, endilikda "aql markaz"lari o‘z bo‘limlarini dunyoning turli mintaqalarida tashkil etishni boshladi. Globallashuv mazkur jarayonlarni jadallashtrish bilan birga, tahlil markazlari uchun yangi tadqiqot yo‘nalishlarini shakllantirdi. Natijada, "aql markaz"larining tadqiqot faoliya yo‘nalishlari va turlari ko‘payib bordi.

Bugungi kunda ekspertlik-tahlil markazlarini tasniflashda yagona yondashuv mavjud emas. Tahlil markazlarini tasniflashda ikki xil yondashuv qo'llaniladi: birinchisi, tahlil markazining tegishli tashkilotga qarashligi; ikkinchisi esa tahlil markazining mustaqilligi kabi turlari mavjud.

Shuningdek, tahlil markazlarini siyosiy jarayonlardagi o'rni, qabul qabul qiluvchiga (bevosita yoki bilvosita) ta'siri, guruhga yoki guruhlarga ta'siri (shaxs, partiya yetakchisi, jamoatchilik fikri), faoliyat sohasi, moliyalashtirish manbalari (hukumat, manfaatdor guruhlar, siyosiy partiya va boshqalar) va ideologik qarashlari (liberal yoki konservativ kabi) kabi mezonlarga ko'ra ham tasniflash mumkin. [8]

K. Veyber "aql markaz"larini 3 ta turga bo'ladi:

– talabalarsiz universitetlar;
– buyurtma bo'yicha tadqiqot olib boruvchi tashkilotlar;
– manfaatlarni himoya qiluvchi "aql markaz"lari. [9]

Tadqiqotchilar J. Makgan va R. Univer "siyosiy partiyalar bilan bog'liq tahlil markazlari" kabi turini ta'kidlab 4-turni kiritadi. [10] R. Univer fikricha "talabasiz universitetlar" tahlil markazlarida tadqiqotlar asosan ilmiy soha olimlari tomonidan amalga oshirilib, tadqiqot natijasi monografiya hisoblanadi hamda tadqiqotlar xususiy sektorlar tomonidan moliylashtiriladi. [9]

Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan buyurtma asosida tadqiqot olib boradigan tahlil markazlari asosan hisobot va tahlillar bilan shug'ullanib, keng jamoatchilik uchun yopiq hisoblanadi. Bunday turdagi tahlil markazlarining yorqin namuasi RAND korporatsiyasidir.

Manfaatlarni himoya qiluvchi tahlil markazlari esa qaror qabul qiluvchi bilan yaqin hamkorlikda faoliyat olib boradi. Shundan kelib chiqib, mazkur turdagi markazlarning tadqiqotchilari asosan siyosiy partiya yoki manfaatdor guruh vakillari hisoblanadi. [7]

Partiya tahlil markazlari – bu siyosiy partiya doirasida faoliyat olib boruvchi tadqiqot tashkilotdir. Mazkur tashkilot xodimlari asosan sobiq partiya rahbarlari yoki yetakchilari hisobladi. Tadqiqot mavzusi hamda yo'nalishlari partiyaning buyurtmasidan kelib chiqib olib boriladi. Bunday turdagi tahlil markazlari ko'pincha g'arbiy yevropa mamlakatlarida keng ommalashgan bo'lib, Konrad Adenauer jamg'armasi (*Konrad Adenauer Shiftung*) va Fridrix Ebert fondi (*Friedrich Ebert Shiftung*) eng yorqin namularidir. [10]

1-jadval. "Aql markazlari"ning klassifikatsiyasi. [11]

Kategoriyasi	Ta'rifi
Mustaqil va Avtonom (*Independent and autonomous*)	Har qanday hukumat, tashkilot, partiya, guruh yoki donorlardan mustaqillik hamda faoliyati olib borishda va moliyalashtirishda

	ulardan avtonom.
Kvazi-mustaqil (*Quasi independent*)	Hukumatdan avtonom, ammo moliyalashtirishning katta qismini ta'minlovchi va faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan manfaatdor guruh yoki donor tomonidan nazorat qilinadi.
Hukumatga tegishli (*Government affiliated*)	Hukumat rasmiy tuzilmasining bir qismi.
Kvazi-hukumatga tegishli *(Quasi-governmental)*	Faqatgina davlat grantlari va shartnomalari hisobidan moliyalashtiriladi, ammo hukumatning rasmiy tuzilmasiga kirmaydi.
Universitetga tegishli *(University-affiliated)*	Universitet qoshidagi tadqiqot markazi.
Siyosiy partiyaga tegishli *(Political-party affiliated)*	Rasmiy ravishda siyosiy partiyaga tegishli tahlil markazlari.
Korporativ (foyda olish uchun) Corporate (for-profit)	Foyda olish uchun faoliyat olib boradigan tadqiqot muassasi.

Tahlil markazlarining ahamiyatga egaligi ko'p jihatlar bilan siyosiy tizimdagi o'rni bilan bevosita bog'liqdir. Xususan, AQSH va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida demokratik institutlar kuchli bo'lganligi sababli, tahlil markazlari muhim vazifalarmi amalga oshiradi. Misol uchun, hukumatga siyosiy maslahatlar, turli masalar yuzasidan bahs va munozalar olib borish kabi. [5]

R. Univer va J. Makgann "aql markazlari"ning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar keltiradi: siyosiy masalalar bo'yicha tahlil va tadqiqotlar o'tkazish, dolzarb siyosiy masalalar bo'yicha maslahatlar berish, hukumat dasturlarni baholash, joriy siyosiy vaziyatni OAVda yoritish, hukumatni malakali xodimlar bilan ta'minlash, turli almashinuv va malaka oshirish dasturlari orqali yangi avlod siyosatchilarni yetishtirib chiqarish, shuningdek, siyosatchilar va mutaxassislar o'rtasida o'zaro fikr almashish hamda maslahatlashish uchun kanal yaratish kabi. [10]

"Aql markazlari" tomonidan ishlab chiqiladigan tahliliy materiallari tur xil xarakterga ega bo'lib, asosan markazining turi, tadqiqot yo'nalishi, mijozlari yoki tadqiqot yo'naltirilgan auditoriyaning o'ziga xos xususiyatlari, so'rovlari, tahlil markazining kadrlar salohiyati va tashkiliy imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi.

Tahlil markazlari turli yangi siyosiy va ideologik g'oyalarni boshqa mamlakatlarga keng targ'ib qilishda muhim ahamiyatga ega. Jumladan, tahlil markazlari doimiy tarzda ma'lum g'oyani qo'llab, qolganlarini tanqid qiladi va siyosiy muhitni o'zgartirishga harakat qiladi.

Tahlil markazlarining yuqorida keltirilgan vazifalari jamiyatga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Bu avvalo mazkur jamiyat a'zolarining siyosiy madaniyati bilan bevosita bog'liq. Jumladan, demokratik jamiyatlarda turli qarashlar va g'oyalar tinglanadi hamda muhokama qilinadi. Bunday jamiyatda tahlil markazlari o'z vazifalarini samarali amalga oshira oladi. Nodemokratik yoki avtoritar davlatlarda esa tahlil markazlari hukumat qarorlarini ijtimoiy legitimligini ta'minlaydi, tandiq qilmaydi va har qanday qarorni qo'llab-quvvatlaydi. [5]

Ekspertlik-tahlil markazi nazariy jihatdan tadqiq etish natijasi quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, ekspertlik-tahlil markazi, tahlil markazi yoki "aql markazi" tushunchasiga soha tadqiqotchilar tomonidan berilgan yagona universal ta'rif mavjud emas. Bunga sabab tahlil markazlarining turlari, yo'nalishlari, siyosiy jarayonlar va turli mamlakatlardagi o'rni bilan bog'liq. Shunga qaramay, tahlil markazlarini tadqiqot o'tkazish, taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish kabi asosiy asosiy maqsadlar birlashtirib turadi.

Ikkinchidan, axborotni siyosat bilan birlashtirgan va asosiy maqsadi siyosatni tahlil qilish bo'lgan "aql markaz"lari XX asrning boshlarida vujudga kela boshladi hamda qaror qabul qiluvchi uchun tashqi manba bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, tahlil markazlari fuqarolik jamiyatining muhim qismi sifatida jamiyatni hukumat qarorlaridan xabardor qilish, siyosiy jarayonlar jalb etish va jamoatchilik nazoratini o'rnatish kabi vazifalarni bajara boshladi.

Uchunchidan, tahlil markazlarining samarali faoliyat olib borishi, siyosiy jarayonlardagi o'rni hamda qaror qabul qiluvchiga ta'siri borasida soha tadqiqotchi olimlari tomonidan turli qarashlar bildirilgan. Xususan, tahlil markazlari faoliyati ichki imkoniyatlari bilan birgalikda, davlatdagi siyosiy vaziyat va rejimiga ko'p jihatlarga bog'liq.

Foydalabilgan adabiyot ro'yxati:

1. Abelson D. Do think tanks matter? Canada: McGillQueen's University Press, 2018
2. Think tank // Encyclopedia Britannica (https://www.britannica.com/topic/think-tank)
3. What is a Think Tank? // https://www.politics.co.uk/reference/think-tanks/
4. The Role of Think Tanks // https://www.cipe.org/reports/how-to-guide-for-economic-think-tanks/the-role-of-think-tanks/
5. Stone D. Think tanks and policy advice in countries in transition. How to strengthen policyoriented research and training in Vietnam: Asian Development Bank Institute Symposium. Hanoi, 2005

6. Balayan A. A., Sungurov A. "Yu. Factories of thought and expert communities". St. Petersburg: Aleteiya, 2016. 240 p.

7. McGann J. The fifth estate: Think Tanks, Public Policy, and Governance. Brookings Institution Press, 2016. 230 p.

8. McGann J. Think Tank and the transnationalization of Foreign Policy // The Quarterly Journal. 2003. Vol. 2. P. 85–90.

9. Weaver R. K. Political Science & Politics (Political Science & Politics), 1989, vol. 22, pp. 563–578

10. Weaver R. K., McGann J. Think tanks and civil societies in a time of change // Think Tanks and Civil Societies. London: Routledge, 2017. P. 1–36.

11. 2020 Global Go To Think Tank Index Report.